



ABU ZAYD AL-DABUSI AND HIS SCHOLARLY LEGACY

Muhammadjon Homidjonov

*Master's student at the Oriental University
Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: Dabusiyya, Bukhara, Hanafi school, Islamic law, Mawarannahr, Central Asia, fiqh, usul al-fiqh, Hanafi madhhab, qiyas.

Received: 02.03.26

Accepted: 03.03.26

Published: 04.03.26

Abstract: Although the emergence and initial spread of Islam are historically associated with the Arabian Peninsula, its subsequent development is closely connected with the lands of Central Asia. In the advancement of the sacred religion and the elaboration of Islamic legal norms, the contribution of scholars from this region has been invaluable. One of such outstanding scholars is Abu Zayd al-Dabbusi. A prominent jurist, Abu Zayd al-Dabbusi was one of the seven renowned judges of Bukhara and a distinguished representative and leading authority of the Hanafi school of law. This article examines the life of Shaykh Abu Zayd al-Dabbusi, his scholarly contributions, and his dedicated services to the development of Islamic jurisprudence and the Muslim community.

ABU ZAYID DABBUSIY HAYOTI VA UNING ILMIY MEROSI

Muhammadjon Homidjonov

*Oriental University magistranti
Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Dabusiya, buxoro, hanafiy, islom huquqi, movorounnahr, markaziy osiyo, fiqh, usul al-fiqh, hanafiy mazhabi, qiyos.

Annotatsiya: Islom dinining paydo bo'lishi va yoyilishi arabiston yarim oroliga borib taqalsa-da, ammo uning rivoji Markaziy Osiyo zamini bilan bog'liq. Muqaddas dinimiz taraqqiyotida musulmoncha ahkomlar rivojida ajdodlarimizning o'zni beqiyos bo'lgan. Ana shunday misilsiz xizmat qilgan olimlardan biri

bu Abu Zayid Dabbusiy hazratlaridir. Yirik huquqshunos olim Abu Zayid Dabbusiy Buxoroning yetti mashhur qozisidan biri bo'lib, hanafiy mazhabining salohiyatli vakili va raisi edi. Ushbu maqolada Shayh Abu Zayid Dabbusiy hazratlari va uning ilmiy yo'ldagi xizmatlari va ko'plab musulmonlarga qilgan fidokorliklari haqida so'z ketadi.

АБУ ЗАЙД АД-ДАББУСИ И ЕГО НАУЧНОЕ НАСЛЕДИЕ

Мухаммаджон Хомиджонов

Магистрант Восточного университета

Ташкент, Ўзбекистон

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Даббусия, Бухара, ханафитский мазхаб, исламское право, Мавераннахр, Центральная Азия, фикх, усуль аль-фикх, ханафитская школа, кияс.

Аннотация: Несмотря на то что возникновение и первоначальное распространение ислама связано с Аравийским полуостровом, его дальнейшее развитие было тесно связано с землями Центральной Азии. В становлении и совершенствовании норм мусульманского права вклад ученых данного региона был поистине неоценим. Одним из таких выдающихся представителей исламской науки является Абу Зайд ад-Даббуси. Крупный правовед, Абу Зайд ад-Даббуси входил в число семи известных кади Бухары и являлся авторитетным представителем и руководящей фигурой ханафитского мазхаба. В данной статье рассматриваются личность шейха Абу Зайда ад-Даббуси, его научная деятельность, а также его самоотверженные заслуги в развитии исламского права и служении мусульманской общине.

Kirish. Islom huquqi tarixida hanafiy fiqh maktabining shakllanishi va nazariy jihatdan mukammallashuvida Movorounnahr va uning tutash hududlaridan yetishib chiqqan allomalar muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, fiqh va usul al-fiqh ilmlarining tizimlashtirilishida, shar'iy dalillarni tushunish va tatbiq etish metodologiyasini ishlab chiqarishda hanafiy ulamolari, muhim ilmiy meros qoldirganlar. Ana shunday yirik faqih va mutafakkirlardan biri Abu Zayid Dabbusiy hazratlaridir. Alloma milodiy 978, hijriy 367-yilda Buxoro va Samarqand shaharlari orali g'idagi

Dabbusiya qishlo g'ida dunyoga kelgan. Allomaning tuliq ismi Abu Zayid Abdulloh yoki Ubaydulloh ibn Umar ibn Iso al-Buxoriy al-Hanafiy ad-Dabbusiy bo'lib, "Abu Zayid" uning kuniyasi hisoblanadi. Abu Zayid Dabbusiyning ota-onasi, oilasi va yoshligi haqida cheklangan miqdordagi ma'lumot uchraydi. Alloma yashagan davr, Movorounnahrda ilm-fan rivojlanayotgan davr bo'lib, hanafiy va shofe mazhablari o'rtasida ilmiy munozaralar kuchaygan edi.

Muhokama va natijalar. Abu Zayid Dabbusiy ilmiy merosi bugun keng ko'lamda tadqiq etilmoqda. Olimlarimiz tomonidan faoliyatiga oid bir-biridan yangi ma'lumotlar aniqlanmoqda. Abu Zayid Dabbusiy asarlari o'z davri ilmiy muhiti bilan chambarchas bo'lgan. Shu sababli XI asrda Movorounnahrda yashagan har qanday Hanafiy faqihi yoki fiqhiy asarni o'rganmoqchi bo'lgan tadqiqotchi ko'p holatda Dabbusiyning ijodiga murojaat qiladi. Allomaning asarlari keng e'tirof etilgani bois faqat hanafiy emas balki, boshqa barcha mazhablar uchun ham doimiy qo'llanma sifatida foydalanib kelingan. Hozirgi kunda Saudiya Arabistonidagi Hanbaliy mazhabidagi olimlar Abu Zayid Dabbusiy ilmiy merosini chuqur o'rganayotgani Movorounnahrlik faqihning asarlari necho g'liq qimmatli va ahamiyati katta ekanini ko'rsatadi.

Asosiy qism: Alloma Abu Zayid Dabusiy o'z davrida turli ustozlar qo'lida kamol topgan. Olimga zamonasining mashhur ulamolari saboq berishgan. Dabusiy ikki buyuk faqih Abu Bakr Muhammad ibn Fazil Buxoriy hamda Abu Bakir Jassosning shogirdi bo'lmish Abu Ja'far ibn Abdulloh Usturshoniylardan fiqh, usulul fiqh, xilof, jadal va tasavvuf ilmlarini o'rganib, fiqh bo'yicha iqtidorli olim darajasiga yetdi. Manbalarda qayd etilishicha Abu Zayid Dabbusiyning fiqhdagi silsilasi olti nafar ustozlar vositachiligida Imom Abu Hanifaga borib yetadi. U ustози Abu Ja'far Usturshoniy orqali Abu Hafs Sar g'i Buxoriy va u kishining otasi Abu Hafs Kabir Buxoriy orqali Imom Muhammad Shayboniyga ya'ni Imom Abu Hanifaning eng yetuk shogirtlaridan biri bo'lgan Imom Muhammad Shayboniyga borib taqaladi, va u kishi orqali mazhab boshimiz Imom Abu Hanafiya (rohmatullohi alayh) borib taqaladi.

Abu Zayid Dabbusiy bundan o'n asr muqaddam hilof ilmi ya'ni qiyosiy huquqshunoslik faniga tamal toshi quygan olimdir. Alloma bu sohaga asos solish orqali islom dunyosining hamda Sharq va G'arb ahli ilimlarining e'tirofiga sazovor bo'lgan. Abu Zayid Dabbusiy Markaziy Osiyo faqihlari orasida o'ziga xos ilmiy uslubi va falsafiy tafakkuri bilan ajralib turgan. Dabbusiy fiqh ilmi, hanafiy mazhabi takomili va boshqa fanlar rivojiga katta hissa qo'shganligi tufayli ulkan shuhrat qozongan.

Abu Zayid Dabbusiy fiqh sohasida Iroq va Movorounnahr hanafiy faqihlari qo'llagan uslublar va ularning dalillaridan yaxshi xabardor bo'lgan. O'tkir bilimi keng tafakkuri sababli olim ikki hudud faqihlarini qarashlarini bir-biridan ajrata olgan. Taqzim ul-Adilla asari Hashaviyya va

Zaxriy mazhabi va bugungacha yetib kelmagan boshqa oqimlarning qarashlari ham keltirilgani sababli Movorounnahrda Usulul fiqh va furu fiqh bilan bir qatorda sunniylik yo'nalishi tarixini o'rganishda ham muhim manba sanaladi.

Alloma Abu Zayd Dabbusiy hijriy 430-yil, milodiy 1039- yilda 63 yoshida Buxoroda vafot etgan. Alloma Imom Abu Bakr Tarxon maqbarasi yaqinida dafin etilgan. Alloma Abu Zayd Dabbusiy nomini o'z davrining yetuk olimlari o'z asarlarida go'zal sifatlar bilan tilga olishadi. Abu Zayd Dabbusiy arab tili va adabiyotidan yaxshi xabardor bo'lgan. Ba'zida o'zi ham she'rlar yozib turgan. Uning kam miqdorda bo'lsada, bugungacha yetib kelgan nazmiy me'rosi shundan dalolat beradi. Shayh ur- rais Abu Ali Ibn Sino Abu Zayd Dabbusiyning vafotiga ba g'ishlab marsiya yozgan. Vafotidan so'ng, unga ba g'ishlab marsiyalar yozilgani uning arab adabiyotiga qiziqishini bildiradi.

Asarlari: Alloma Abu Zayid Dabbusiy hazratlari Hanafiy mazhabi bo'yicha qimmatli asarlar yozib qoldirilgan. Ilm ul-hilof asari orqali islomiy huquqlar bo'yicha qiyosiy huquqshunoslik faniga asos solgan. Allomani ko'plab asarlari aynan fiqhga oiddir. Ayniqsa uning Usuli fiqh ya'ni islom huquqi asoslari sohasi bo'yicha yozgan Taqvim ul-adilla asari mashhurdir. U Usulul fiqh sohasida Movorounnahrda tasnif etilgan va bizgacha yetib kelgan eng qadimiy asar hisoblanadi. Shu asosda Abu Zayid Dabbusiyning haqli ravishda islom qonunshunosligi va huquq nazariyasi fanining Movorounnahrda asoschisi deyish mumkin. Ushbu asarni Fahrur Islom Baznaviy sharhlagan. Tarixdan ma'lumki bizning ota-bobolarimiz islom ilmlarining rivojiga salmoqli hissa qo'shgan.

Abu Zayid Dabbusiy ahli sunna mazhablari orasidagi hiloflarni tartibga solib, ilmiy uslubda o'rgangan. Shu asosda Ta'sis ul-Nazar fiy ixtilofil ayinma nomli asarini yozgan. Ushbu asarda mazhablarning muammolarini hal qilishdagi yondashuv prinsplarini yoritib bergan. Bu kitobda Hanafiy mazhabi asoschilari Imom Abu Hanifa r.a, Imom Abu Yusuf r.a, Imom Muhammad Shayboniy va boshqalarning qarashlari bayon etilgan. Asarni Mustafo Muhammad Qaboniy tadqiq qilgan va alohida kitob holida nashr etilgan.

X-XI asrlarda Movorounnahrda fiqh ilmi rivojiga Abu Zayid Dabbusiy yashagan davr Abbosiylar hukumronligi davrining (132-656-hijriy\ 750-1258-milodiy) o'rtasiga tu g'ri keladi. Abu Zayid Dabusiyning 4ta asari bugungacha yetib kelgan:

1. "Taqvil ul-adilla fi usulil fiqh". Bu asari "Usuli fiqhdagi dalillarni tu g'irlash" degan ma'noni bildirib, hanafiy usuli fiqh bo'yicha yozilgan ilk manbalardan biridir. Shu bilan birga, u o'sha davrda Movorounnahrda bu sohada yozilgan va bizgacha yetib kelgan ilk manbalardir. Asar usulul fiqh ilmiga oid bo'lishi bilan bir qatorda, unda ba'zi aqida masalalari ham bayon etilgan.

2. “Ta’sis un-nazar fiy ixtilofil ayinma”. Bu asar “Fikr-mulohazani asoslash” degan ma’noni bildirib, hanafiy mazhabi mujdahidlari, shuningdek, hanafiy va boshqa mazhab mujdahidlari, o’rtasidagi o’zaro ixtilofli masalalar to’plagan.

3. “Amad ul-aqso”. Bu asar “Eng oxirgi maqsad” degan ma’noni bildirib, allomaning eng ko’zga tashlangan asari hisoblanadi.

4. “Asror fil usul val furu”. Bu asar “Usulul fiqh va furu fiqhdagi sirlar” degan ma’noni bildiradi.

Alloma Abu Zayd Dabbusiy hazratlarining yana boshqa ko’plab qulyozma asarlari ham mavjud, lekin afsus-ki u asarlar bizgacha yetib kelmagan. Ular quyidagilar:

1. “Anvor fi usulil fiqh”. Bu asari “Usulul fiqhdagi nurlar” degan ma’noni bildiradi. Hoji Xalifa “Bu- muxtasardir” Muminlarning darajasini yuqori qilgan Allohga hamd bo’lsin. “so’zlari bilan boshlanadi” deb ta’rif bergan.

2. “Xizanatul hudo” nomli asari “Hudoyatga olib boruvchi hazina” degan ma’noni bildiradi. Ilm ul-xilof asari orqali islomiy huquqlar bo’yicha qiyosiy huquqshunoslikka asos solgan.

“Sharhul Jome’ ul-kabir” nomli asari “Katta to’plam sharhi” degan ma’noni bildirib, Muhammad Shayboniynin g “Jome ul-kabir” asariga yozilgan sharhdir.

Hanafiy usulul fiqhdagi o’zgacha davom etib kelayotgan ayrim xatolarni tu g’irlash maqsadida olim “Taqzim ul-adilla” asarini yozadi. Alloma al-Amad ul-aqso, Kitob ul-Asror fil usulil valfulu va Hizonatul ul-Hudo asarlarida o’z qarashlarini kamolga yetkazganini ko’rishimiz mumkin, va yana An-nuzum fil fatavo, Tajnis ul-Dabbusiy, At-taliqa kabi bebaho asarlarning ham muallifi hisoblanadi. Abu Zayid Dabbusiy fiqhda al-maxlof ya’ni qiyosiy huquqshunoslik yo’nalishiga asos solgan alloma hisoblanadi. Hilof bu bir masala yuzasidan Mujdahidlarning turli fikrda bo’lishidir. Shar’iy dalillardan chiqarilgan fiqhiy masalalarda hilof ushlab turadi. Chunki mujtahidlarning biror masalada yechim topishida manbalardan foydalanishi uslub va metodlari har xil bo’ladi. Alloma ko’p mualliflardan farqli ravishda hilof ilmiga usul ilmining muhim bir shubasi deb qaraydi, alloma o’z asarlarida ayniqsa, Tabzi ul-adilla kitobida qiyos usuli imkoniyatlarini unga tegishli barcha muhim va murakkab atamalarni qonun qoidalarini izlab beradi.

Allomalarning Dabbusiy haqidagi fikrlari: Abu Zayid Dabbusiy katta-katta faqihlar bilan munozara qiladigan mazhab doirasida ijtixod qila oladigan darajadagi ilimga ega bo’lgan shaxs hisoblanadi. Allomaning ilmiy salohiyati va tengsiz istedodi barcha olimlar tomonidan e’tirof etilgan. Vafoyat ul-Ayon, Toj ul-Tarajim, Javohir ul-Muziya va Favoud ul-Bahiyya kabi asarlarda uning Buxoro va Samarqand shaharlarida mashhur olimlar bilan baxs-u munozaralar olib borganligi qayd etilgan. Buyuk faqih sifatida Abu Zayid Dabbusiyning hayoti buyuk olimlar,

biograflar, tadqiqotchilar tarafidan e'tibor bilan ahamiyat berilgan shaxsiyatlardan biri hisoblanadi. O'rta asrda yashagan biograflardan Abu Has Nasafiy, Abdulkarim Sanoaniy, Ibn Halikon, Imom Zahabiy, Ibn Kasir, Ibn Abu Rohov Qurayshiy ibn Tu g'roberdi, Ibn Qutlubug'o, Abul Fozil ibn Amot, Abdulhay Naknaviy kabi olimlar o'z asarlarida Abu Zayid Dabbusiy haqida qimmatli ma'lumotlar berib utganlar. Horijlik olimlardan Karil Brokelman Hatsezgen, pokistonlik Muhammad Hamidulloh kabi olimlar Turkiyada Dabbusiy haqidagi ilk tadqiqot muallifi hisoblanmish Yusuf Ziyokovakchi kabilarni misol sifatida keltirish mumkin. Yusuf Ziyokovakchining Abu Zayid Dabbusiy hayoti va ilmiy merosiga atab yozgan maqolalari ilmiy tadqiqotlarni keying tadqiqotchilardan keng ilmiy jamo ommasida qiziqish uy g'otgan. O'zbekistonda Abdulhakim Shar'iy Jusjoniy Movorounnahrlik faqihlar haqida yozgan asarlarida Dabbusiyning hayoti va asarlari haqida kengroq ma'lumotlar berib utganini ko'rishimiz mumkin.

Abu Zayid Dabbusiy faqihlar orasida salmoqli o'rin egallagan. Chunkiy Abu Zayid Dabbusiy ustoz Abu Ja'far Usturshoniy Buxoroda Muhammad ibn Fazliddin hazratlaridan ta'lim olgan bo'lsa, Iroqda Abu Bakir Jassosdan ta'lim olgan. Abdul Karim somoniy o'zining asarida Abu Zayid Dabbusiy haqida quyidagicha fikr bildiradi: "Abu Zayid Dabbusiy sohibi asror, dalil bilan gapirguvchi, Nazari o'tkir, olim edi. U Samarqand va Buxoroning yirik olimlari bilan munozara qilardi". deb keltirgan. Mashhur tarixchi Ibn Haldun olim haqida shunday deb aytgan: Abu Zayid Dabbusiy qiyosga tegishli bo'lgan barcha baxs munozaralarga yakun yasab keng ko'llamli asarlar yozdi va islom huquqi asoslari ilmini mukammal darajaga ko'tarib, unga tegishli masalalarning yechimini topdi va qoidalarini tartibga keltirdi deb e'tirof etgan.

Alloma umri mobaynida nafaqat islom ilmi uchun zarur bo'lgan asarlar yozdi balki, musulmon olami uchun yuksak salohiyatli shogirtlar ham tayyorladi. O'z davrining mashhur olimlari uning shogirtlari hamda izdoshlari edilar. Abu Zayid Dabbusiyning hayot va ilmiy faoliyati ustida izlanish olib borgan tadqiqotchilar va olimlar ta'kidlashicha uning ikki nafar shogirdi bo'lgan, ulardan birinchisi Abu Nasir Ahmad ibn Abdurahmon Ri g'damuniy bo'lib, u Buxoro yaqinidagi Ri g'damun qishlo g'ida tu g'ilgani uchun shunday nisbani olgan. Abu Has Nasafiy o'z asarlarida Abu Nasir Ri g'damuniydan hadis rivoyat qilgan. Ikkinchi shogirdi Alovuddin Marvaziydir. Ba'zi tadqiqotlarda Abu Zayid Dabbusiyning shogirdi sifatida tarifi beriladigan alloma Arsobandiy aslida uning emas, balki Alovuddin Marvaziyning shogirdi bo'lgan.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkin-ki, Abu Dabbusiy mazhab doirasida ijti-hod qilib hukm chiqarish salohiyatiga ega tafakkurli olim hisoblangan. U Movorounnahr faqihlari

orasida o'ziga xos ilmiy uslubi bilan ajralib turgan va shu bilan shuhrat qozongan. Abu Zayid Dabbusiy fiqh ilmi hanafiy mazhabi takomili va boshqa fanlar rivojiga katta hissa qo'shgan va yuksak ilmiy ahamiyatga molik asarlar yozgan. Uning fan oldidagi buyuk xizmatlar faqih, usuliy fiqh, hilof ilmi va tasavvuf soxalarida ko'rinadi. Jorj Maqdisiy ham XI asr bo'g'dodagi ilmiy muhit haqidagi tadqiqotda Abu Zayid Dabbusiyni ta'siri haqida ma'lumotlar berib o'tgan. Shu bilan Abu Zayid Dabbusiyni Movorounnahrda tashqari hududlarda ko'rsatgan ta'sirini o'rgangan yagona tadqiqotchi hisoblanadi. Shuningdek Abu Zayid Dabbusiyni Taqvim ul-Adilla va Ta'sis ul-Nazar asarlari ustida tadqiqot ishlari olib borgan Amerikalik Breno Viler va Saudiyalik Abdurahim Solih Muhammad Ya'qub va Sharafuddin Aliqalay kabilarni ham Abu Zayid Dabbusiyni hayoti va ilmiy faoliyati ustida tadqiqot izlanishlar olib borgan olimlar sifatida keltirish mumkin.

Alloma shu tariqa o'z ilmiy faoliyati orqali islom olamida yuksak darajaga erishgan, ayniqsa islom ilmlari orasida yangi yo'nalishga asos solgani diqqatga sazovordir. Taassufki istiqlolgacha ko'plab allomalarimiz qatori Abu Zayid Dabbusiy ilmiy faoliyati ham keng o'rganilmadi. Hozirgi kunda olimning hayoti va ilmiy merosi keng tarqib etilmoqda. Bobo kalonimiz qoldirgan boy ijodiy me'rosi va asarlaridagi qarashlarni chuqurroq o'rganish ilmiy nazariyalarni mazmun mohiyatidan xalqimizni eng avvalo yosh avlodni xabardor etish bugungi zamon olimlarining asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Turkiston tuproqlari ma'rifat ahlini haqiqiy ma'nodagi beshigidir, desak yanglishmaymiz. Vatanimizdan shu kunga qadar yuzlab mutafakkirlar dunoyiv va diniy ilmlar sohobi yetishib chiqqan, ularning tafakkur o'zani ma'naviy me'rosiga murojat qilganimiz sari ongimiz teran, fikrlarimiz go'zallashib boradi. Ajdodlar me'rosiga munosib bo'lish esa bizni bundanda katta marralar sari eltishi shubxasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abu Zayid Dabbusiy. Amad al-aqsa fi khizanat al-huda. – Istanbul: Beyazit kutubxonasi, Veliyuddin Efendi bo'limi. Qo'lyozma № 1633, 1682.
2. Abul-Yusr Muhammad al-Bazdaviy. Kitab fi usul ad-din. – Qohira: Dar Ihya' al-Kutub al-'Arabiyya, 1963. – B. 154–155.
3. Mustafo ibn 'Abdulloh Kotib Chalabiy (Hoji Xalifa).
Kashf az-zunun 'an asami al-kutub wa-l-funun: 2 jild. – Istanbul, nashr yili ko'rsatilmagan. – B. 168; 568.
4. Abu Hafs Najm ad-Din 'Umar an-Nasafiy.

Al-Qand fi dhikr ‘ulama’ Samarqand. – Yusuf al-Hadiy tahqiqi ostida. – Tehron: Ayina-yi Miras, 1420 h. / 1999. – B. 467.

5. Abdulhakim Shar’iy Juzjoniy. Islom huquqshunosligi. – Toshkent: Toshkent Islom universiteti nashriyoti, 2002.

6. Shayh Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Uşul al-fiqh. – Toshkent: Hilol nashr, 2012.

7. Abdulloh Abdulhamid Saad. O’rta Osiyo olimlari. – Nashr joyi va yili ko’rsatilmagan.

8. Uzbek Wikipedia. URL: <https://uz.wikipedia.org>

9. Oliy Mahad rasmiy sayti. URL: <https://oliymahad.uz>

10. Shayh Saloh Abul Xoj. Hanafiy mazhabiga teran nigoh. – Toshkent: Hilol nashr, 2024.